

Nabiyeva Nodira Saidovna

Surxondaryo viloyati, Denov tumani,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tel: +998 91 589 70 99

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buyuk so'fiy Xo'ja Abdulloh Ansoriy haqida so'z boradi. Ul insonni qilgan ishlari merosi bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Komillik, tasavvuf, meros, so'fi, shayx, joribkash (supuruvchi).*

KIRISH.

Buyuk insonlar doim mangu yashaydi. Ular o'lmaydi ular qilgan ishlari orqali xalq mehrini qozonadi. Ular komillik sari intilib yashashadi.

Komillik - bugungi kun insonlari uchun qadrlil va kerakli bo'lgan tushuncha hisoblanadi. Shunday ekan har bir inson umri davomida erishgan tajribalari, bilimlari, ko'nikmalari asnosida hayot kechiradi. U o'z hayot yo'lini va bu yo'lda sodir etgan barcha a'mollarini o'zicha baholaydi. O'zga insonlarning bildirgan ijobiy fikrlari yoqimli, albatta, lekin tanqid hamisha ham hammaga yoqavermaydi. Inson hayoti davomida goho bilib, goho bilmay, juda ko'p xato va gunoh ishlarni sodir etadi. Bu esa ayrim hollarda jiddiy muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlardan saqlanish uchun komillikka erishish lozim. Mana shunday insonlardan biri Buyuk So'fiy Xo'ja Abdulloh Ansoriy edi.

Xalq hamisha komillikka intilib, yaxshi niyatlar bilan yashaydi. El-yurtga naf keltirishni oilasini mustahkam, o'z turmushini obod qilishdan boshlaydi. Bu ezgu yo'lda milliy qarashlar va an'analarga suyanadi, bobomeros qudratdan kuch oladi.

TADVIQOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA.

XOJA ABDULLOH ANSORIY (1006-1088)

Buyuk so'fiy, "Piri Hirot", "Shayxul mashoyix", "Shayxul Islom" nomlari bilan mashhur bo'lgan alloma Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy 1006 yilda Hirotida dunyoga kelgan. U mashhur so'fiy Abul Hasan Haraqoniyning shogirdidir. Abdulloh Ansoriy arab va fors tillarida tasavvufga oid bir qancha kitoblar yozdi. Uning "Munojotnoma"si juda mashhurdir. Shoir vafotidan so'ng shogirdlari uning tafsirini jamlab, "Kashful Asror" nomi bilan tartib berganlar.

21 yoshida ilm olish uchun Tus, Bistom, Nishopurga borgan. 1033-yilda Shayx Abu Sayid Haraqoni, 1049-yilda Shayx Abu Sayid Abulxayr bilan tanishgan. Dunyoqarashi vujuduyun (panteizm)ga moyil. Hirotida shayxulislom va pir darajasiga ko'tarilgan. Arab va fors tilida ijod qilgan. Forsiy adabiyot tarixida nasrda saj'ga asos solgan va nasriy asarlarda birinchi bo'lib she'riy parchalar keltirgan.

Fors tilidagi asarlari: "Munojotnoma", "Nasoyah", "Zodul orifiyn", "Kanzul solikiyn", "Haft Hisor", "Ilohiynoma", "Muhabbatnoma", "Qalandarnoma", "Risolai dilu jon", "Risolai varodat", "Sad maydon", "Risola manoqibi Imom Ahmad ibn Hanbal".

Arab tilidagi asarlari: "Anvar ul-tahqiq", "Zimul kalom", "Manozilas soiriyn", "Kitol furuq", "Kitobul Arba'iyn". Xoja Abdulloh Ansoriy 1088 yili Hirotda vafot etadi.

Temuriy shahzoda Boysunqur Mirzo Hirotda Ansoriy qabriga muhtasham maqbara bunyod etgan. Alisher Navoiy Ansoriyni "muqarrabi boriy" ("Tangrining yaqini") deb tilga oladi va umrining oxirida Ansoriy mozorining jo'rubkashi (supuruvchisi) bo'lishni orzu qilgan va u yerda xonaqoh qurdirib, atrofini obod qilgan

Ruboiylardan.

1 Haq yo'lida ikki Ka'ba bo'lmish hosil,

Bir — Ka'bayi suvrat esa, bir — Ka'bayi dil.

Sen sayla va dillarni ziyorat ayla.

Ming Ka'badin ortiqroq emishdir bir dil.

2 Maqsudi diling, murodi joning ishqdir,

Sarmoyayi umri zindagoning ishqdir.

Yod aylaki, ishqdin baqo topdi Xizr,

Ya'niki, hayoti jovidoniig ishqdir.

3 Mastingman o'zim, jur'avu jom bilmasmen,

Saydingman o'zim, donavu dom bilmasmen.

Ul Ka'bayu butxonada maqsad — sensan,

Sensiz nadir ul ikki jahon, bilmasmen...

Xo'ja Abdullohi Ansoriy shunday deydi:

Allohning yaqini Xoja Abdullohi Ansoriy so'zi shundaykim, egasi tariqatning oxiridan xabar berdimi, u o'z tariqati tugaganidan xabar bergan bo'ladi.

U kishini Hirot ahli, Hirot ahligina emas, balki butun koinot uni qibla (Ka'ba) deb hisoblardi. U imoni komillarning yo'l boshlovchi xulq-atvorlisi bo'lib, lining ismi Abdullohi Ansoriy edi. U: «Mening ishim toat qilish va Tangrining buyruqlariga bo'ysunishdan iborat! - der edi. - Mening maqsadim (odamlarni) do'zax o'ti bilan qo'rqitish ham emas, (toatlar) evaziga jannat va'da qilish ham. Kimki qo'rqqani uchun Xudoga ibodat qilar ekan, u nafi tilagan narsadan xalos bo'lish yo'lini qidirib ish tutgan bo'ladi. Kimki umid bilan bechorahol yashar ekan, uning tilagi jannatda osudalikka erishishdir.

(Unda) uni ham, muni ham haqiqatdan uzoq, deb bil. Ikkalasiga pul topish uchun mardikorlik qilish, deb qara. Mening ishim doim sig'inishdan iborat bo'ldi. Men qo'rqish va umidvorlik - ikkalasini o'zim uchun harom deb bilar edim. Bandalik amrlarini bajarish bilan (ahvolimni) yaxshi deb bilib, tunu kun ishlarim shunday ekan, buning uchun men uzrliman.

Toat-ibodatim buning uchun loyiq darajada bo‘lmasligi mumkin, lekin bir soatim busiz ham bo‘lmasin!

(Alloh) qil dedimi, mening odatim qilishdan iboratdir. Buni u qabul qiladimi yoki rad etadimi, bu bilan ishim yo‘q. Jannat zohidga, do‘zax yengiltaklarga bo‘laqolsin! Yor orzusi bo‘lsa, Navoiyga shuning o‘zi yetarlidir.

Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonidan.

Alisher Navoiyning «Lisonut-tayr» asaridan:

Hikoyat

Xoja Abdulloh Ansoriy dedi,

Ulki bu yo‘l ahlig‘a hodiy edi:

«Kim kishi soz aylabon ohangi rud,

Tuzsa ul ohang aro lahni surud,

Lek bu rudu surudidin murod,

Bo‘lsa tengri yodi, ey pok e‘tiqod,

Yaxshiroqim g‘aflat ohangin tuzub,

O‘qug‘oy Mushaf tilovat ko‘rguzub.

Bo‘lsa lahnu nag‘mada ogohlig‘,

Behki toat vaqtida gumrohlig‘».

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, asarlarining ko‘pchiligi pand-nasihat tarzida. Ularda kishilarni ilm-ma‘rifatga chaqirgan, hukmdorlarni adolatli, xalqqa tayanch bo‘lishga da‘vat etgan, insonparvarlik, go‘zal insoniy fazilatlar, xalqqa xizmat qilishni ulug‘lagan. "Munojot va maqolot", "Mano-zil us-soirin" kabi asarlari, ayniqsa, mashhur bo‘lgan. U Buyuk shaxs sifatida doimo qadrlanadi va e‘zozlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islom tasavvufi manbalari. – Toshkent, O‘qituvchi, 2005.
2. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent, 2009.
3. A. Sh. Juzjoniy. Tasavvuf va inson. Toshkent. 2001. -B. 9.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavur. Toshkent. Hilol, 2019. - B 7.
5. Buxoriy Sadridin Salim. Bahouddin Naqshband yoki yetti pir. Buxoro. 2006. - B. 14.
6. Voxidov R., Maxmudov M, Azimov Yu. Ulug‘ Xojaning ibrat va hikmatlari. Pedagogik mahorat, 2005. 1-son. -B.